



BUDJETLARARO MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASH

ENSURING THE STABILITY OF LOCAL BUDGET REVENUES THROUGH IMPROVING INTERGOVERNMENTAL FISCAL RELATIONS

¹Meyliyev Obid
Raxmatullaevich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
iqtisod fanlari doktori, professor

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlashda budjetlararo munosabatlarning o'рни va ahamiyati yoritilgan. Mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solishda budjetlararo munosabatlarning amal qilish mexanizmi, shuningdek mahalliy budjetlarga ajratilayotgan transfertlar, ular orqali mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash yo'llari asoslangan. Mahalliy budjetlar xarajatlarining qoplanish manbalari va unda budjetlararo taqsimotlarlar holati amaliy ma'lumotlar asosida keltirilgan. Shuningdek, olib borilgan izlanishlar asosida ilmiy taklif va xulosalar shakllantirilgan.

Eng. - The article highlights the role and importance of inter-budgetary relations in strengthening local budget revenues. The mechanism of operation of inter-budgetary relations in regulating local budget revenues is discussed, as well as transfers allocated to local budgets, and ways to strengthen local budget revenues through them. The sources of coverage of local budget expenses and the state of inter-budgetary distributions in them are presented based on practical data. Also, scientific proposals and conclusions are formulated based on the research conducted.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *budjetlararo munosabatlar, mahalliy budjet daromadlari, mahalliy budjet xarajatlari, maqsadli transfertlar, solikli daromadlar, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar.*

❖ *inter-budget relations, local budget revenues, local budget expenditures, targeted transfers, tax revenues, regulatory inter-budgetary transfers.*

Kirish.

Mahalliy budjetlar davlat moliyaviy tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Budjetlararo munosabatlar esa markaziy va mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi moliyaviy resurslarni taqsimlash mexanizmlarini belgilaydi. O'zbekistonda budjetlararo munosabatlarni samarali tashkil etish mahalliy

budjetlar daromadlarini oshirish va hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish davlat moliyaviy tizimini barqarorlashtirish va hududiy rivojlanishni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda bu jarayon budjetlar o'rtasida moliyaviy resurslarni adolatli taqsimlash, mahalliy hokimiyatlarning

moliyaviy mustaqilligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy yordamni turli budjet darajalari o'rtasida taqsimlash moliyaviy tenglashtirish sharoitida ko'rib chiqiladi.

Moliyaviy yordam ko'rsatishning umumiy tamoyillari va mezonlarini ko'rib chiqishda alohida huquqiy tartibga solish doirasida ham, undan tashqarida ham budjetlararo munosabatlarni tartibga solishning turli darajalari mavjudligini hisobga olish kerak.

Turli darajadagi tartibga solish mavjudligini hisobga olgan holda, belgilangan prinsiplar va mezonlarni o'z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjatlar doirasini aniqlash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Global miqyosda budjetlararo munosabatlarni tartibga solishning uchta darajasini ajratish o'rinlidir: 1) xalqaro; 2) millatlararo; 3) milliy.

Budjet mablag'larini tegishli mamlakatning budjet tizimi darajalari o'rtasida taqsimlashning umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

➤ makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;

➤ tegishli hududlarning tengligi;

➤ samaradorlik;

➤ izchillik (mablag'lardan foydalanish)

[1].

Milliy miqyosda yagona davlat doirasida budjetlararo munosabatlarni tartibga solishning turli darajalari mavjudligini hisobga olish kerak.

An'anaviy ravishda ikki guruh darajalarini ajratish o'rinlidir:

1) konstitutsiyaviy va qonun chiqaruvchi;

2) mintaqaviy va mahalliy.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda budjetlararo tenglashtirish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

❖ subyektlarga berilgan vakolatlar va ularning xarajatlari o'rtasidagi munosabatlar (Germaniya, Fransiya, Italiya, Shvesariya);

❖ teng huquqli subyektlarning o'z vakolatlari doirasidagi muammolarni hal qilish uchun o'z xarajatlarini qoplashda mustaqilligi, budjetlararo yordam ko'rsatish mexanizmlari va hududlararo hamkorlikni shakllantirish imkoniyati (moliyaviy avtonomiya prinsipi) (Germaniya, Fransiya, Italiya, Shvesariya, Xitoy, Avstriya);

❖ moliyaviy jihatdan xavfsizroq hududlar orqali tengsizlikni yumshatish zarurati (Fransiya, Shvesariya) va hududlar imkoniyatlarini tenglashtirish (Avstraliya) [2].

Budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish davlat moliyaviy tizimini samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Xorijiy davlatlarning tajribasi bu sohada turli yondashuvlar va mexanizmlarni namoyon etadi. Jumladan, Germaniyada soliq vakolatlari federal va regional hukumatlar o'rtasida aniq taqsimlangan. Federal hukumat asosiy soliq turlarini yig'sa, regional hukumatlar mahalliy soliqlarni boshqaradi [3]. Bu tizim hududlar o'rtasidagi moliyaviy tenglikni ta'minlashga qaratilgan.

Shveysariyada kantoniylar soliq stavkalarini mustaqil belgilash huquqiga ega. Bu soliq raqobatini kuchaytiradi va har bir kanton o'z hududida investitsiyalarni jalb qilishga harakat qiladi. Natijada, davlat xizmatlarining samaradorligi oshadi. Braziliyada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mahalliy hokimiyatlarga keng moliyaviy vakolatlar berildi. Bu mahalliy budjetlarning mustaqilligini oshirishga xizmat qildi hamda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirdi [4].

Ispaniyadagi Bask va Navarra Avtonom jamoalari keng moliyaviy vakolatlarga ega bo'lib, o'z soliq tizimlarini mustaqil boshqaradi. Bu hududlar moliyaviy mustaqillikka erishgan va iqtisodiy rivojlanishga olib kelgan. Kanadadagi Kvebek va Alberta provinsiyalari turli moliyaviy modellarga ega. Kvebek qayta

taqsimlash to'lovlariga tayanadi, Alberta esa neft daromadlaridan foydalanadi [5]. Bu modellar hududiy ehtiyojlarga moslashuvchan yondashuvlarni ko'rsatadi.

Xitoydagi Shenchjen va Shanxay kabi maxsus iqtisodiy zonalar moliyaviy avtonomiya va imtiyozli siyosatlariga ega bo'lib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Avstriyada federal hukumat va tog'utlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar "kooperativ federalizm" modeliga asoslangan. Federal hukumat keng soliq vakolatlariga ega bo'lsa-da, moliyaviy tenglashtirish tizimi orqali moliyaviy resurslar taqsimlanadi [6]. Bu tizim hududlar o'rtasidagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishda har bir davlat o'zining tarixiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlariga mos ravishda turli modellar va mexanizmlarni qo'llaydi. O'zbekiston uchun bu tajribalardan samarali foydalangan holda mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, soliq vakolatlarini aniq taqsimlash va hududiy moliyaviy tenglikni ta'minlash yo'nalishlarida islohotlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksida "Budjetlararo munosabatlar O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti, tumanlar, shaharlar budjetlari, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari o'rtasidagi ushbu Kodeks bilan tegishli budjetlarga birlashtirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tegishli budjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir" [7] deya keltirilgan.

Fikrimizcha, budjetlararo munosabatlarning qonunda belgilangan ta'rifini yanada aniqlashtirish, uning ilmiy

asoslanganligini oshirish lozim. Budjetlararo munosabatlarning birmuncha to'laroq ta'rifi rus iqtisodchi olimlari A.M.Babich va L.N.Pavlova tomonidan berilgan: "Budjetlararo munosabatlar - davlat hokimiyati organlari, subyektlari va mahalliy boshqarish organlari o'rtasidagi budjet vakolatlari va budjet sohasidagi boshqaruv predmetlarini chegaralash va birlashtirish, qonun chiqaruvchi (vakillik) va ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjet jarayoni va budjetlarni tuzish, tasdiqlash va ijro etish sohasidagi huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklariga rioya qilish bo'yicha munosabatlar majmui. Budjetlararo munosabatlarning umumiyligi budjet federalizmiga asoslanadi" [8]. Ushbu ta'rif mazkur muammoni hal etishning huquqiy asoslarini ko'rib chiqish va tayyorlash jarayonidagi munosabatlarnigina aks ettiradi.

Budjetlararo munosabatlar - davlat budjet mexanizmining muhim ajralmas elementi bo'lib, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o'rtasida markaziy boshqaruvning markazdan turib barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta'minlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o'zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat budjetida jamlangan pul mablag'larining ushbu subyektlar o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlar yig'indisidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, mahalliy budjetlarni shakllantirishda asosan o'z daromadlariga tayanish lozim. Lekin, O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlari holatini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy budjetlarga tegishli soliqlar va mahalliy yig'implarning salmog'i sezilarli emas. Bundan tashqari, mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash, budjet bo'g'inlari orasidagi qarama-qarshi moliyaviy oqimlarni qisqartirish va ortib borayotgan mahalliy budjetlar xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida respublika soliqlaridan

ajratmalar salmog'i yuqoriligicha qolayotgani mazkur sohada tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqoza etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish tartibi hamda ular barqarorligini ta'minlash va mustahkamlashda budjetlararo munosabatlarning joriy holatini o'rganishda mantiqiylik, tizimli tahlil va ilmiy abstraksiya, statistik tahlil, qiyoslash kabi usullardan foydalanilgan.

Mamlakat hududlarida resurslarning notekis taqsimlanganligi, bozor infratuzilmasining teng sharoitlarda rivojlanmaganligi, sanoatning rivojlanish darajasi turlichaligi kabi qator omillar mavjudki, bu holat hududlarning bir tekis rivojlanishiga imkon bermaydi. Shu bois, davlat tomonidan iqtisodiyotni, jumladan, hududlar iqtisodiyotini tartibga solishda ularning rivojlanganlik darajasi albatta e'tiborga olinishi zarur.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, ular infratuzilmalarini rivojlantirish, shuningdek, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda xalq deputatlari kengashlarining roli va vakolatlari oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»ga PF-60-sonli Farmonida Xalq deputatlari Kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha ularning mas'uliyatini kuchaytirish [9] maqsadlari belgilangan.

Mahalliy hukumat moliyasining o'ziga xos afzalliklari shundan iboratki, qarorlar fuqarolarga yaqin bo'lishi mumkin va bu yaqinlikdan foyda olinadi. Qarorlar aholining

xohish-istaklariga mos kelishini ta'minlash - va bu qarorlar natijalarini baholash aholini qamrab oladi [10].

Fuqarolar mahalliy hokimiyatlardan kutayotgan xizmatlar turlari va mahalliy hokimiyatlarda mavjud bo'lgan daromad manbalari tizimli markaziy hokimiyatdagi manbalardan farq qiladi. Mahalliy hokimiyatlar ham rasmiy yuridik topshiriq yoki amaliyot va an'analar orqali, odatda, odamlar va mulkka eng yaqin bo'lgan xizmatlar uchun javobgar bo'ladi. Masalan, ijtimoiy xizmatlar (ta'lim, sog'liqni saqlash)ni, infratuzilma - (yo'llar, suv, kanalizatsiya, chiqindilarni boshqarish, uy-joy, issiqlik, telekommunikasiya)ni; ijtimoiy himoya tarmoqlarini va himoya xizmatlarini o'z ichiga olishi mumkin [11].

Mahalliy budjetlarga birlashtirilgan soliqlar va yig'imlardan tushumlar mahalliy budjetlar xarajatlarini kichik qismini qoplaganligi bois mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy qismi budjetlararo tartibga solish yo'li bilan, tartibga soluvchi soliqlardan normativlar bo'yicha ajratmalar ajratish orqali shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 118-moddasida daromadlarni budjet tizimi budjetlari o'rtasida taqsimlash tartibi keltirilgan [12].

Tartibga soluvchi daromadlardan tushgan tushumlar budjet tizimi budjetlari o'rtasida taqsimlanadi.

Tartibga soluvchi daromadlardan Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga, Toshkent shahrining shahar budjetiga hamda tumanlar va shaharlar budjetlariga ajratmalarining normativlari tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Budjet imkoniyatlari darajasi va mahalliy budjetlarning mustaqilligiga bevosita yuqori budjetdan, ya'ni vertikal bo'yicha budjet daromadlarini taqsimlash parametrlari ta'sir qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror bozor iqtisodiyoti sharoitida budjetlararo munosabatlar mahalliy

hududlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda etarli darajada mustaqil mahalliy budjetlarni shakllantirishga yordam beradi.

1-jadval

Mahalliy budjetlarga ajratilayotgan transfertlar miqdorlarining o'zgarish dinamikasi [13]

mlrd. so'mda

T/r	Hududlar nomi	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	303,1	0	796,5	2507,2	3440,8	4020,6	2077,9
2.	Andijon viloyati	871,9	1379,3	1603,1	2492,4	3623,3	4267,0	1913,8
3.	Buxoro viloyati	232,3	0	1312,1	1705,5	1932,4	2210,1	361,1
4.	Jizzax viloyati	412,1	730,6	998,4	1466,7	2105,7	2466,9	888,6
5.	Qashqadaryo viloyati	313,6	0	2137,9	3375,2	4892,3	5978,3	927,0
6.	Navoiy viloyati	139,2	0	275,8	681,5	1037,8	1027,6	182,5
7.	Namangan viloyati	865,3	1312,2	2012,5	2657,9	3659,2	4647,1	1983,9
8.	Samarqand viloyati	992,3	1760,9	1426,1	2743,3	3700,9	3730,8	1588,5
9.	Surxondaryo viloyati	827,8	1214,8	1640,3	2788,7	3857,3	4941,8	1832,8
10.	Sirdaryo viloyati	271,3	481,1	1659,1	1257,1	1523,3	1800,1	901,8
11.	Toshkent viloyati	374,3	0	985,9	1248,8	2323,0	1819,7	517,4
12.	Farg'ona viloyati	1033,4	0	1457,1	2200,7	3970,5	4770,5	1943,7
13.	Xorazm viloyati	519,1	884,2	973,4	1603,9	2103,9	2938,6	1203,8
14.	Toshkent shahri	0	0	2258,5	4332,3	3504,4	2485,5	513,9
	Jami	7155,7	7763,1	19536,7	31061,2	41674,8	47104,6	16836,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, tahlil etilayotgan yillarda mahalliy budjetlarga ajratilayotgan transfertlar miqdorlari oshib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Shuningdek, transfertlar ajratilayotgan mahalliy budjetlar ham ko'paymoqda.

Hozirga qadar turli darajadagi davlat hokimiyati organlarining daromadlari va xarajatlari vakolatlarini qayta taqsimlash orqali mahalliy budjetlarning mustahkamlanishi va muvozanatini ta'minlashga qaratilgan budjet ta'minotini tenglashtirish va mahalliy hokimiyatlarning daromad salohiyatini rivojlantirish uchun rag'batlantirishni ta'minlashning maqbul nisbati topilgani yo'q.

Mahalliy budjetlarning tartibga soluvchi daromadlari miqdori hududlarning quyidagi ko'rsatkichlari asosida belgilanadi:

- hududlar moliyaviy holatiga, jumladan, ular o'z daromad bazalarining etarligiga;

- ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlariga;

- hududlar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar qiymatidagi farqlarga;

- har qaysi hududlar aholisining soniga;

- ushbu hududda joylashgan tashkilotlarning budjet ajratmalariga bo'lgan ehtiyojiga;

- hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblik(tafovut)ni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga [14].

Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi umumdavlat resurslarini budjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash negizida yotadi.

2-jadval

Mahalliy budjetlar xarajatlarining qoplanish manbalari va tarkibining o'zgarish dinamikasi [13], foizda

№	Yil	Xarajatlar	Daromadlar				
			Mahalliy budjetlar daromadlari	Dotasiyalar	O'zaro hisob-kitoblar	Subvensiyalar	Transfertlar
1.	2010	100	71,5	2,1	8,8	17,6	-
2.	2011	100	72,8	0,2	0,2	26,8	-
3.	2012	100	72,5	0,0	0,5	27,0	-
4.	2013	100	73,6	0,0	0,4	26,0	-
5.	2014	100	74,7	0,0	7,4	17,9	-
6.	2015	100	76,9	0,0	9,6	13,5	-
7.	2016	100	76,5	0,0	12,0	11,5	-
8.	2017	100	83,3	0,0	10,0	6,7	-
9.	2018	100	71,9	0,0	0,0	0,0	28,1
10.	2019	100	80,0	0,0	0,0	0,0	20,0
11.	2020	100	58,6	0,0	0,0	0,0	41,4
12.	2021	100	53,1	0,0	0,0	0,0	46,9
13.	2022	100	53,2	0,0	0,0	0,0	46,8
14.	2023	100	54,1	0,0	0,0	0,0	45,9
15.	2024	100	77,5	0,0	0,0	0,0	22,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan yillarda mahalliy budjetlar daromadlari xarajatlarning o'rtacha 70 foizini qoplamogda, qolgan qismi esa yuqori budjetlardan ajratilayotgan moliyaviy yordamlar hisobiga moliyalashtirilmoqda. Tahlil etilayotgan yillarda moliyaviy yordam turlari o'zgarib borgan bo'lsada, ajratilayotgan moliyaviy yordam miqdorlari deyarli kamaymayapdi. Bu esa o'z navbatida mahalliy boshqaruv organlarining mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishdagi moliyaviy mustaqilligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublikamiz soliq tizimidagi mavjud soliqlarni budjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning amal qilish mexanizmiga ko'ra, ular har birining u yoki bu budjet bo'g'iniga yo'naltirishning huquqiy bazasi mavjud. Respublika budjeti daromadlari respublika soliqlari hisobiga, mahalliy budjetlar daromadlari esa mahalliy budjetlarga birlashtirilgan soliqlar va yig'imlar hisobiga shakllantirishning huquqiy bazasi mustahkamlangan.

Hududlarda qulay ishbiarmonlik muhitini shakllantirish, yangi korxonalar, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida korxonalarni tashkil etish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining turli qatlamlari bandligi masalalarini hal etish orqali mahalliy budjetning daromad bazasini kengaytirish, respublika va mahalliy budjetga tushumlar hajmini oshirish hisobiga mahalliy budjet subvensiyasi hajmini bosqichma-bosqich qisqartirish va bartaraf etish[15] vazifalari hokimlarning iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarlari zimmasiga yuklatildi.

Xulosa va takliflar.

Bizningcha mazkur holatni yechimi sifatida birinchidan, mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirishda mahalliy hokimiyat organlari mas'uliyati va vakolatini oshirish, ikkinchidan, rejadan ortiqcha soliq tushumlarini mahalliy budjetga qoldirish mexanizmini takomillashtirish, uchinchidan, mahalliy hokimliklar tomonidan qo'shimcha

zahiralarini shakllantirish, yangi soliqlar tortish ob'ektlari va bazalarini yaratish chora-tadbirlarini ishlab chiqilishiga erishish lozim.

Mahalliy budjetlar daromadlarini barqarorlashtirishning muhim yo'llaridan biri soliq bazasini kengaytirishdir. Bu jarayonni soliq tushumlarini hududlarda samarali yig'ish mexanizmlarini joriy etish, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha soliq ma'muriyatini raqamlashtirish, qo'shimcha daromad keltiruvchi soliqlar va mahalliy yig'implarni aniq va shaffof belgilash orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlashda mahalliy budjetning boshqa daromadlarini, ya'ni davlat aktivlarini ijaraga berish yoki sotish orqali tushumlarni oshirish, mahalliy tadbirkorlikni faollashtirish orqali davlat xizmatlaridan tushumlar hajmini kengaytirish orqali amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda hududlar iqtisodiy salohiyatni oshirishda infrastruktura loyihalarini amalga oshirish orqali investitsion muhitni yaxshilash hamda xususiy sektorga soliq imtiyozlari berish orqali faol tadbirkorlik muhitini yaratish muhimdir.

Mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlash yo'llarini yana biri respublika budjeti va mahalliy budjetlar o'rtasida daromad manbalarini taqsimlash mezonlarini takomillashtirish hisoblanadi.

Resurslarni tenglashtirish haqiqiy soliq tushumlariga emas, balki potensial soliq tushumlariga, ya'ni ular soliq nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin bo'lgan qiymatni yaratishga asoslanadi [16].

So'nggi yillarda mahalliy budjetlar daromadlarining katta qismi markaziy budjetdan ajratilayotgan tartibga soluvchi transfertlarga bog'liq bo'lmoqda. Hududlarning soliq salohiyati turlicha, shuningdek iqtisodiy bazasi etarlicha rivojlanmagan viloyatlar markazdan doimiy yordam olishga majbur bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida hududlar moliyaviy mustaqilligini cheklaydi.

Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

❖ Soliq tushumlari yig'ilishini to'liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish;

❖ Iqtisodiy resurslardan foydalanishni tahlil qilish asosida mahalliy budjetlar salohiyatini baholash;

❖ Markaz va hududlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarda samaradorlik va shaffoflikni ta'minlash;

❖ Hududlarga soliq stavkalarini belgilashda belgilangan vakolatlar doirasida erkinlik berish;

❖ Respublika budjetiga o'ta bog'liq hududlarning soliq salohiyatini baholash va resurslarni qayta taqsimlash;

❖ Davlat budjeti tizimidagi avtomatlashtirilgan axborot platformalari orqali tushumlar harakati monitoringini yo'lga qo'yish;

❖ Hududlarda soliq va moliyaviy faoliyatning oshkoraligini ta'minlash orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Bu O'zbekistonda hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mahalliy budjetlarning mustaqilligini oshirish va davlat budjeti tizimini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Paul Bernd Spahn. *OECD workshop on Effective Public Investment at Sub-National Level in Times of Fiscal Constraints: Meeting the Co-ordination and Capacity Challenges 21 JUNE 2012. OECD CONFERENCE CENTRE.* См. <http://www.oecd.org/cfe/regional-policy/Conditioning-Intergovernmental-Transfers-paper.pdf>

2. Agrawal, D. R., Brueckner, J., & Brühlhart, M. (2023a), *Fiscal Federalism in the 21st Century. CES Ifo working paper.* Available from: <https://sites.socsci.uci.edu/~jkbrueck/Federalism.pdf>

3. Luiz de Mello. Local Government Finances: The Link between Intergovernmental Transfers and Net Worth. https://www.oecd.org/en/publications/local-government-finances_080476332876
4. <https://fastercapital.com/content/Fiscal-Decentralization--Fiscal-Decentralization-and-Local-Governance--Challenges -and-Opportunities.html>
5. Sean Dougherty, Andoni Montes Nebreda and Tatiana Mota. Adapting intergovernmental fiscal transfers for the future: Yemerging trends and innovative approaches. 22 July 2024 https://www.oecd.org/en/publications/adapting-intergovernmental-fiscal-transfers-for-the-future_6389ca23-yen.html
6. <https://www.cifor-icraf.org/gcs/knowledge-tree/understanding-contextual-factors/governance-and-policy/degree-of-decentralization-fiscal-and-otherwise-fiscal-decentralization/>
7. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 132-modda. <https://www.lex.uz/acts/2304138>
8. Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы: Учебник для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2002. 213 стр.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"ga PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
10. Jhon L. Mikesell. Local Budgeting, 17 page.
11. Sarraf, Feridoun. "Implementation Note: Integration of Recurrent and Capital 'Development' Budgets: Issues, Problems, Country Yexperiences, and the Way Forward." World Bank Public Yexpenditure Working Group, Was'hington, DC. <https://www.worldbank.org>
12. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. <https://www.lex.uz/acts/2304138>
13. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari
14. Jo'raev A., Safarov G., Meyliev O. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", 2019. -179 b.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-dekabrdagi "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2691-sonli Qarori.
16. Мейлиев, О. Р. Вопросы расширения налогового потенциала регионов / О. Р. Мейлиев // Вестник современной науки. – 2016. – № 4-1(16). – С. 114-117.